

## TALABALARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIMNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8265034>

**Maxmatkulov Iskandar Xolmuradovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida talaba yoshlarda ekologik tafakkurni rivojlantirish hamda bunda mediya ta'limning o'rni va rolini ilmiy asosda ko'rsatib berilgan*

### **Tayanch iboralar**

*Ta'lim-tarbiya, ekologiya, ekologik tafakkur, yoshlar, media olam, media ta'lim, media vosita, ommaviy axborot vositalari, radio, televediniya, internet, ijtimoiy tarmoq, pedagogik texnologiya*

## РОЛЬ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

### **Аннотация**

*В статье научно обосновано развитие экологического мышления у студенческой молодежи в учебно-воспитательном процессе, а также медиаобразования и его роль.*

### **Базовые фразы**

*Образование, экология, экологическое мышление, молодежь, медиа-мир, медиа-образование, медиа-среда, СМИ, радио, телевидение, интернет, социальные сети, педагогические технологии*

## THE ROLE OF MEDIA EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL THINKING IN STUDENTS

### **Annotation**

*The article provides a scientific basis for the development of environmental thinking in the student youth in the educational process, as well as the role and role of media education.*

### **Base phrases**

*Education, ecology, environmental thinking, youth, media universe, media education, media medium, media, radio, televedinia, internet, social network, pedagogical technology.*

Ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liq, ammo nisbatan mustaqil faoliyatning ikkita sohasini o'z ichiga oladi degan pozitsiya mavjud. O'quv jarayonining ma'nosi juda aniq - bilim, ko'nikma, malaka va usullarni o'zlashtirish. Asosan, bu axborot jarayoni va axborotni uzatish vositalari - ya'ni media ta'lim bilan bog'liqdir. Shu sababli, pedagogik faoliyatda va ta'lim jarayonida media vositalar hamda axborotning o'zni va roli ham amaliy ham nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun media olam va muhit to'g'risida ta'lim jarayonida yoshlarga zarur bilim va ko'nikmalar berib borish muhim bo'ladi. Chunki ommaviy axborot vositalari har bir inson hayotida katta rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalarining mazmuni shaxsning jamiyat va uning quyi tizimlari bilan munosabatlarining barcha tomonlarini, shaxs tarkibiga kiradigan ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi.

Ommaviy axborot vositalari deganda, uni mohiyatini izohlovchi media olam tushuniladi. Ommaviy axborot son jihatidan katta, odatda geografik jihatdan tarqoq auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lib, tarqalish tezligi va muntazamligi, deyarli bir vaqtning o'zida iste'mol qilinishi, vositachilik, ma'lum darajada stereotip xarakteri bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham media olam kategoriyasini istemolda qo'llash hozirgi kunda umum qoiadaga aylanib bo'ldi. Shunday ekan, qaysi bilim, ilm, fan umuman ta'limning barcha yo'nalishlarida mazkur hodisa to'g'risida ma'lumotga, tushuncha va tafakkurga ega bo'lish muhim. Jumladan, ekologiya, ekologik bilim va tafakkuraga ega bo'lishda ham media ta'limni berish talaba yoshlarimizning ekologik tafakkurini o'stirishda amaliy va nazariy natijaga olib keladi. Shu o'rinda ekologik tafakkur tushunchasiga qisqasha ta'rifidan kelib chiqsak, insoniyatni o'rab turgan tabiyat olami, atrof muhitni umumiy holati to'g'risida tasavvur, tushunch va bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lganlik anglanar ekan, bunday ko'nikma va tafakkurga ega bo'lish, nafaqat ananaviy bilimlar manbayi orqali, shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, zamonaviy mediya ta'lim vositalari orqali ham ekologik dunyoqarash va tafakkurga erishish mumkin.

Bugungi kunda olamning ilmiy manzarasini ekologok muammolarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri fan, texnika, ishlab chiqarishning yangi sohalarini paydo bo'ldi va odamlarning mehnat faoliyatining atrof - muhitga ta'sir doirasi juda kengayib ketdi. Bu o'z navbatida Yer yuzida ekologik vaziyatni keskin yomonlashuviga olib keldi. Agar tez orada insonlarni atrof-muhitga munosabatlarini ma'lum tarzda tartibga solinmasa, insoniyat uning mavjudligiga yadro urushidan ham kuchliroq tahdid soladigan ekologok halokatga duch keladi. Shuning uchun ham yoshlarda ekologik tafakkurni tarbiyalashda

an'anaviy ta'lim usullarining o'zi bugunda, kutilgan natija bermaydi. Zero axborot inqilobi sharoitida qadriyatlar tizimining tez o'zgarishi davrida ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-madaniy roli o'sib borayotgan sharoitda ekologik bilimlarni o'stirish zamonaviy media ta'lim vositalarini qo'llashni talab etmoqda.

Oila va maktabda, oliy ta'limda ta'lim va tarbiyani tashkil etishning mavjud stereotiplari, zamonaviy ommaviy axborot vositalari mazmunining yo'nalishi va mazmuni o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy jamiyat talablari bilan tanishtirishning dolzarb muammolarini hal etishda ularning imkoniyatlarini to'liq baholash va bashorat qilish imkonini beradi. Bugungi kunda ta'lim va ommaviy axborot vositalarining o'zaro ta'siri muammolari faylasuflar, psixologlar, o'qituvchilar, jurnalistlar va sotsiologlar tomonidan olib boriladigan fanlararo tadqiqot sohasidir. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining auditoriyaning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonlariga, yosh talabalarning ijtimoiylashuviga, yosh avlodning ijtimoiy moslashuviga hissa qo'shadigan bilimlarni, shu jumladan ekologik madaniyatni, tafakkurni ustirishda ekologiyaga ta'luqli ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sir qilish mexanizmlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning tabiatga aralashuvining mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini oldini olish uchun bir qator ilmiy, texnik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa muammolarni hal qilish kerak bo'ladi. Ular orasida birinchi o'rinda ta'lim muammolari egallaydi. Yosh avlodni maktabda o'qiyotgan davridan boshlab tabiiy muhitga ilmiy asoslangan va ehtiyotkor munosabatda bo'lishga tayyorlashda zamonaviy mediya vositalardan ekologiyaga oid rangli suratlar, usmirni o'ziga jalb etuvchi kurgazmali turli video materiallar, videoprojektlar va shu kabi media vositalarning oddiy, tushunarli ko'rinishlaridan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu esa yoshlarda ekologiya, atrof muhit to'g'risida qiyinchiliksiz tushuncha va ilmiy tasavurlarga ega bo'lishga yordam beradi.

Shuning uchun ham maktab, oliy ta'limda ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirishda media ta'limning qulay vositalaridan foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ushbu muammoni hal etishda o'quv jarayoni ishtirokchilarining (ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchilarning o'zlari) ommaviy axborot vositalariga bo'lgan munosabati o'zgarishini tahlil qilish va ularning ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining rolini baholash ham o'ta muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda respublikamizda ekologik muammolarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan 2019-yil 27-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 434- sonli qarori<sup>44</sup> bilan “O‘zbekiston respublikasida ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi va unda quyidagilar ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi: - O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta‘lim tizimida ekologik ta‘limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta‘lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta‘limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, ta‘lim oluvchilarning e‘tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas‘uliyatini kuchaytirish kabi bir qator masalalardan iborat. Yoki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi<sup>45</sup> ning 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boyliklardir, ular davlat muhofazasidadir” deb belgilangan. Ammo hukumatning mazkur qarorini hamda qonun moddasini ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga qanday va qay yo‘sinda tushunarli qilib yetkazish ham juda muhim hisoblanadi. Chunki, qarorni mohiyati, ustuvor yo‘nalishlari zamonaviy mediya ta‘lim vositalaridan unumli foydalanish orqali yetkazilmasa, qarorni asl mohiyati va amaliy jihatlari talaba anglay olmaydi, natijada tushunarsiz hujjatga aylanib qolaveradi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari – radio, televideniya, internet tizimi, undagi turli saytlarda, teleko‘rsatuvlarda ekologiyaga oid filmlar, video roliklar, reklamalar va shu kabi bugunning media vositalaridan unumli foydalanishni kuchaytirish ekologik tafakkurimiz yanada oshishiga yordam beradi.

2021 yil 31 dekabrda “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori<sup>46</sup> qabul qilindi va unda ham ekologik tafakkurni o‘stirishda ekologik tarbiya masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Masalan, qaysi fan sohasini o‘qitmaylik, uning ekologik jihatiga o‘quvchini e‘tiborini qaratish muhimligi, aytaylik, Fizikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga ekologik ta‘lim berish, avvalambor, ularda tabiatning yaxlitligi, unda sodir bo‘layotgan hodisalar va ularning o‘zaro bog‘liqligi, inson va tabiatning o‘zaro ta‘siri haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga qaratilishi, ya‘ni talabalarga jamiyat va tabiatning tobora murakkablashib borayotgan o‘zaro ta‘sirini chuqurroq, to‘liqroq va to‘g‘ri tushunishga, tabiatni himoya qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga

<sup>44</sup> 2019-yil 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 434- sonli qarori.

<sup>45</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.,O‘zbekiston. 2018.16,17,19 betlar.

<sup>46</sup>“Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2021 yil 31 dekabr.

oshib qolmaydi albatta. Buning uchun, talabaga ekologik bilimlarni yetkazishning zamonaviy media ta'limning usul, vositalari to'g'risida ham bilim, tasavvur uyg'otish zarur bo'ladi. Yoshlarda media ta'lim nima, zamonaviy ommaviy axborot vositalari nimalardan tashkil topganligi haqida tushunchalar bo'lish kerak. Chunki talaba ekologiyaga oid bilimlarni nafaqat ta'lim beruvchidan, shu bilan bir qatorda o'zi mustaqil tarzda (mustaqil ta'limda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot va tasavvurlarga ega bo'lishi) ham mediya ta'lim vositalarini qo'llash, ulardan samarali foydalanish texnik ko'nikmasi yetarli bo'lishi talab etiladi. Demak, ta'lim oluvchi mediya olam, mediya vositalar, zamonaviy innovatsiya texnologiyasi va ularning ta'lim tarbiyadagi roli haqida ma'lumotlarga ham biroz to'xtab o'tish kerak.

Ta'lim va tarbiya uchun qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan juda ko'p sonli ommaviy axborot vositalarining mavjudligi va ushbu ma'lumotlar bilan ishlash usullarining pedagogik arsenalining takomillashmagani ham ekologik bilimlarni yetkazishda oqsoqlikka sabab bo'ladi.

Ushbu sohadagi tadqiqotlarning dolzarbligi XX-asr oxirida shakllangan media tizimining rivojlanishi, ommaviy aloqaning an'anaviy kanallari (ommaviy bosma, televideniya, radio) va yangi mediya vositalar (birinchi navbatda elektron) o'rtasidagi o'zaro ta'sir dinamikasi bilan bog'liq ommaviy axborotni yaratish va tarqatish shakllari bilan bog'liq. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mohiyati tahlili shu sohaga oid keng qamrovli, yaxlit, asosli tadqiqotlarning yo'qligi akademik tadqiqotchilarning ham, pedagogik amaliyotchilarning ham vaqti-vaqti bilan e'tiborini qaratadigan hodisa bo'lgan "parallel maktab" holatini tahlil qilishga urinishlarning mukammal emasligini ko'rsatadi.

"Ekologik ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishishi va o'zaro uyg'unlikni shakllantirishi mumkin."<sup>47</sup>

Ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalari tizimida amalda faollashishiga qaratilgan vazifalarni hal etish o'z ifodasini topgan. Shu bois ham ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalarini (media olamda mediya vositalarni faoliyatini) isloh qilish, axborot va so'z erkinligini

<sup>47</sup> Global dunyoda ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari 15 dekabr, 2022 yil.



ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgani buning yorqin tasdig'idir. Biz bu masalani nega keltirayapmiz? Chunki, mediya ta'limni yo'lga qo'yish avvalo media olamni, media vositalarni faoliyatini erkinligi va ma'suliyatini taqoza etadi. Masalan, ekologik vaziyat, atrof muhitning mavjud real holatini oshkora, ochiq va to'g'ri ommaga etkazishda mediya vositalardan demokratik tamoyillar asosida yondoshuvni taqoza etadi. Ommaviy axborot vositalari orqali, internet tarmoqlari faoliyatining ob'ektiv faoliyati muhim rol o'ynadi.

Bugungi kunga qadar ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi 10 dan ortiq qonun va qonun hujjatlari qabul qilingan, jumladan, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Nashriyot faoliyati to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Aloqa to'g'risida" va boshqalar.

Shu bilan birga, mustaqil ommaviy axborot vositalarining davlat organlari, jamiyatning barcha boshqa qatlamlari, masalan, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari vakillari faoliyatini tanqidiy baholagan holda mustaqil pozitsiyasini egallashi uchun keng imkoniyatlar mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Bu borada ta'sisчилari davlat va nodavlat tashkilotlari bo'lgan ommaviy axborot vositalarining nisbati diqqatga sazovordir. Chunonchi, bosma ommaviy axborot vositalarida nodavlat notijorat tashkilotlarining ulushi 53 foiz, elektron ommaviy axborot vositalarida 60 foiz, onlayn ommaviy axborot vositalarida 97 foizni tashkil etadi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatda media ta'limdan ekologik tafakkurni rivojlantirishda foydalanish davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, jamoatchilik fikri ko'p yo'nalishli axborot oqimlari bilan to'qnash keladiki, bu narsa ekologik muhitning haqqoniy real holatini yoshlar tomonidan zarur ekologik holat, atrof muhitning jamiyatga u yoki bu darajada ta'siri to'g'risida ekologik bilim va madaniyatni egallashning muhim omili hisoblanadi.